DORO VA ISKANDAR MOJAROSI TASVIRINING GENEZISI

Otanazarova Shodiya A'zambek qizi
Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida muhim o'rin tutuvchi Doro va Iskandar mojarosiga oid tasvirlarning Sharqdagi manbalari tadqiq etilgan. Mazkur syujetga taalluqli obraz, motiv va detallar qiyosiy-tarixiy aspektda o'rganilgan.

Абстрактный. В статье рассматриваются восточные источники образов, связанных с конфликтом между Дарием и Александром, играющим важную роль в эпосе Алишера Навои «Садди Искандарий». Образ, мотив и детали, связанные с этим сюжетом, исследуются в сравнительно-историческом аспекте.

Abstract. The article examines the Eastern sources of images related to the conflict between Darius and Alexander, which plays an important role in Alisher Navoi's "Saddi Iskandariy" epic. The image, motif and details related to this plot are studied in a comparative-historical aspect.

Tayanch so'z va iboralar: Alisher Navoiy, genezis, syujet, motiv, obraz, Doro, Iskandar.

Ключевые слова и фразы: Алишер Навои, генезис, сюжет, мотив, образ, Доро, Искандар.

Key words and phrases: Alisher Navoi, genesis, plot, motive, image, Darius, Iskandar.

Alisher Navoiy Iskandar qilgan ishlarning barchasini yozib tugatishni oson ham, zarur ham emas deb hisoblagan. Shu bois, dastlab, Iskandar tarixini *ijmol* tariqida – umumiy bayon qilib, so'ngra u haqdagi qissa va tarixlarni qiyoslab, eng asosiy nuqtalargina e'tibor qaratgan. Navoiy keltirgan fexrist – xronologiya Nizomiy, Xusrav dostonlari va boshqa Iskandar qissalari mundarijasining qorishiq ko'rinishi bo'lib, Navoiy bu orqali Iskandarning umumiy tarixini eslatib o'tgach, mazkur tarixga o'z yondashuvini quyidagicha izohlaydi:

Umurida ulcha g'aroyibdurur –
Ki, ul ishta ko'prak ajoyibdurur.
Judo aylabon qizib oloyishin,
Anga aylasam nazmoroyishin.[29]

Ushbu prinsip asosida "Saddi Iskandariy" dostoni syujeti ko'zdan kechirilsa, asarning originalligi va Navoiyning ijodkor sifatida o'ziga xosligi yaqqol namoyon bo'ladi. Shu tariqa Navoiy Iskandarning butun tarixidan o'z asarida tasvirlash uchun

[29] Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Mukammal asarlar to'plami, XX jildlik, 11-jild. – Toshkent: "Fan", 1993, 127-bet.

quyidagi asosiy syujet liniyalari (yoki epizodlarni) tanlab olgan : 1) Iskandarning Rumda podsho bo‘lishi; 2)Iskandar va Doro to‘qnashuvi; 3)Iskandarning Kashmirga yurishi; 4)Iskandarning Hindga yurishi; 5)Iskandarning Chinga yurishi; 6)Iskandarning Mag‘ribga yurishi; 7)Iskandarning Ya’jujlarga qarshi kurashi; 8)Iskandarning dengizga safari; 9) Iskandarning vafoti.

Navoiy salaflari, jumladan, Nizomiy kabi Iskandar va Doro munosabatlari tasviriga keng (3 bob) ajratgan. Ushbu syujet tasvirida, avvalo, Doro va Iskandar o‘rtasidagi jangni keltirib chiqargan omillar xususida to‘xtalish kerak. Sharqdagi aksariyat tarixiy asarlarda Iskandar va Doro muxolifatining sababi sifatida boj ko‘rsatiladi. Tabariy uch xil omilni qayd etgan : biri – xiroj, ikkinchisi – Iskandarning tashabbusi, ya’ni Iskandar Rum taxtiga o‘tirgach, Mag‘ribga yurish qilib, u yerni o‘ziga tobe qiladi, natijada, o‘zini qudratli his eta boshlaydi va Doroga qarshi jang qilish payiga tushadi. Ayni shu omil asosiy sabab – xiroj bermaslikni keltirib chiqargan. Uchinchisi – mamlakat xalqi Doro zulmidan bezgan edi, shu bois ularning bir qismi Iskandar tomonga o‘tib, Doroning sirlarini aytib berish orqali Doro zulmidan xalos bo‘lishni istashgan. Bunday ma’lumotlarning ayrimlari “Saddi Iskandariy” ga ham ko‘chib o‘tgan, masalan, pahlavon Boriqi Barbariyning Doro zulmidan bezib, Iskandar tomonga qochib o‘tishi tasviri shu siraga mansub.

Nizomiy “Iskandarnoma” ga mana shu omilning biroz o‘zgargan variantini asos qilib olgan. Unga ko‘ra, Iskandar zangiylarni yengib Rumga qaytgach, qo‘lga kiritilgan o‘ljalardan bir qismini Doroga yuboradi, qimmatbaho hadyalar tufayli Doroning hasadi kelib, Iskandarga itik so‘zlar bitilgan, haqoratli noma yo‘llab, Iskandarni ranjitadi va uning Eronga yurish qilishliga zamin hozirlab beradi.[30] Ibn Balxiy Iskandar va Doro o‘rtasidagi to‘qnashuvga sabab bo‘lgan omillarni shunday umumlashtirgan: “Iskandarning forsga kelishiga uch narsa sabab bo‘lgan: Rumni yakson qilamiz” deya yuborgan qo‘pol xabarining Iskandarga og‘ir botishi. Ikkinchisi — otasining vaziri bo‘lgan Rashtinning Doro bin Dorodan ranjishi va uning ayb-u nuqsonlarini aytib, Iskandarga yordam berishi. Uchinchisi – Doro bin Doro va uning vaziri badsiyaratu badroy edi. Hamma Lashkar va raiyat undan nafratlanar edi”[31]. Mirxond “Ravzat us-safo” da Faylaqusning Doro xazinasiga har yili vazni qirq misqolga teng ming oltin bayza (tuxum shaklidagi tilla) yuborgani, ziddiyatning kelib chiqishiga shu xirojning to‘lanmay qolishi sabab bo‘lganini aytaadi. Navoiy “Saddi Iskandariy” da Nizomiy kabi xiroj masalasini asos qilib olgan va unga oid faktlar Mirxond ma’lumotlari bilan aynan bo‘lsa-da , “Tarixi muluki Ajam” da keying ikki qarash xususida ham yozadi.

Iskandar va Doro munosabati tasvirida elchilar vositasida qilingan munozara epizodi ham muhim o‘rin tutadi. Iskandar dastlab xiroj talab qilib kelgan elchiga pand

[30] Nizomiy Ganjaviy. Xamsa: Iskandarnoma. – Dushanbe: “Adib” , 2012. – S.72-73.
[31] O‘sha asar.

berib, *tuxumlarni tug'uvchi qush uchib ketdi* deb javob berib yuboradi. Mazkur javob Sharqdagi manbalarda turlicha keladi. Ikkinchi bor kelgan Doro rasuli o'zi bilan *go'y, chavgon va kunjut* olib keladi. "Saddi Iskandariy" Nizomiy "Iskandarnoma" sidagi detallar deyarli takrorlanadi, faqat Nizomiy asarida Iskandar ham Doroga javoban kunjut o'rniga sipandon – isiriq urug'ini yuboradi.[32] Nizomiy variantiga yaqin talqin Tabariyda mavjud, faqat Iskandar Doroga javoban xardal – juda mayda sariq rangli, achchiq dona (urug') yuboradi. Navoiy dostonida bo'lgani kabi ko'pgina tarixiy manbalar Dorodan go'y, chavgon va kunjut kelgani borasida yakdil, biroq Doroga javoban Iskandar yuborgan predmetlar borasida fikrlar turlicha. Mazkur holat epizodning "Saddi Iskandariy" ga kiritilmasligiga sabab bo'lgan bo'lishi kerak.

Xiroj masalasidagi ikkinchi bir jihat *go'y, chavgon, kunjut, qush yoki parranda* detallarining iskandarnomalarga kelib qo'shilishidir. Tarixda ayrim shunga o'xshash ma'lumotlar saqlanib qolgan, masalan, qadimgi fors hukmdorlari vassallardan tobelik belgisi belgisi sifatida suv va tuproq talab qilishgan.[33] Iskandarnomalar bosh qahramonining prototipi Aleksandr Makedonskiy tarixan Aleksandr II deb yuritiladi, chunki undan ilgari Makedoniyada podsho Amintaning o'g'li Aleksandr I ham o'tgan. Aminta hukmdorligi davrida Doro I ning 7 nafar elchisi suv va tuproq so'rab boradiva bu tashrifda Aleksandr I faol ishtirok etadi. U o'z tashabbusi bilan ziyofatda elchilarning ko'nglini olib, ularning talablarini bajaradi.[34]

Xamsanavislikda aks etgan Doroning Iskandardan boj talab qilish voqeasi o'sha Aminta o'g'li Aleksandr I zamoni bilan aloqador bo'lib , Aleksandr II dan Doro II talab qilgan boj va yana o'sha zamonda qabul qilingan ioat natijasi edi. Xiroj qissasiga go'y, chavgon, kunjut kabi elementlarning qo'shilishi ham tarixiy chalkashlik yoki folklor an'analari ta'siri natijasidir.[35]

Doroning o'limi atrofidagi tafsilotlar esa tarixiy, adabiy manbalarda ko'p uchraydi . "Saddi Iskandariy" da tasvirlangan mazkur voqelikda uch asosiy jihat mavjud: 1)Iskandarning kakliklar vositasida jang natijasiga ishora ko'rishi; 2) Doroga suiqasd; 3) Doroning vasiyatlari.

Iskandarning ishlarini fol orqali bashorat qilish yoshlik yillaridan boshlanadi, umuman, bu asarlarda fol motivi alohida o'rin tutadi. Masalan, Rovandiy Iskandar yurishlarining fol motivi bilan aloqador qiziq jihatlarini bayon qilgan : "Iskandar ilm talab qilib yurgan paytlarda Aristotelni huzuriga chorladi. Arastuning otasi Naqumohis "G'olib va mag'lublikni oldindan aniqlash jadvali" ni berib, o'g'lini Iskandar xizmatiga yubordi. Iskandarning ismi jadvalning ustiga, mamlakatlar jadvalning ostiga yoziladi. Unda Iskandarning butun olamga farmonravo bo'lishi va

[32] Nizomiy Ganjaviy. Xamsa: Iskandarnoma. – Dushanbe: "Adib" , 2012. – S.83-84.
[33] Gerodot. История в девяти книгах. – л .:" Наука", 1972. – С.242.
[34] O'sha asar, 243-bet.
[35] O'sha asar, 220-bet.

olam mulkini zabt etishi bitilgan bo‘lib, jadval Iskandarga dasturamal bo‘ladi".[36] Mazkur detal Nizomiy dostoniga ham o‘tgan. Navoiy bu haqida yozmasa-da, Nizomiy singari Naqumohisni astrolog sifatida ham ko‘rsatadi.

Doroga qarshi urush natijasining Iskandar tomonidan kakliklar jangi vositasida bashorat qilinishi epizodi esa "Saddi Iskandariy" ga Nizomiy "Iskandarnoma"sidan o‘tgan. Tarixiy asarlarda unga o‘xshash qaydlar mavjud, ya'ni Iskandar haqidagi qissalarning ba'zilarida Doro bilan jangdan oldin Iskandarning biror predmet bilan bog‘liq holda fol yo‘yish motivi uchraydi. Nizomiy kakliklar va savolga javob qaytaruvchi tog‘ bilan bog‘liq follar haqida "*shunidamki*", ya'ni *"eshitishimcha"* deydi, shunga qaraganda u bu variantlarni og‘zaki rivoyat va afsonalardan olgan bo‘lishi kerak. Zabexullo Safo ham Nizomiyning "Sharafnoma" va "Iqbolnoma" ni yozishda mavzuga doir shubhali tarixiy naqllardan manba sifatida foydalanganini qayd etadi. Inson tabiatiga xos bunday yo‘yimlar boshqa mashhur sarkardalar, xususan, Amir Temurda ham bo‘lgan.[37]

Ikki noyib va Doroning o‘ldirilishi esa manbalarda turlicha izohlanadi. Tabiriy bu masalada ikki xil qarash borligini ko‘rsatgan. Biri – Doroning zolimligi sabab ko‘pgina fors rahnamolari Iskandar tomonga o‘tib, Doroning sirlarini unga yetkazib turishgan. Jang mahali Iskandarning buyrug‘i bilan Doroning xos odamlari uning boshini Iskandar huzuriga olib borishgan. Ikkinchisi – Doroning hamadonlik ikki nigohboni Iskandar huzurida e'tibor topish uchun Doroni o‘ldirgan.[38] Mazkur ikki qarash keying manbalarda takrorlanadi. Masalan, Mustavsiy va Mirxond Iskandarning Doro qotillari bilan aloqasi borligi masalasiga qo‘shilmaydi. Navoiy ham Iskandarning Doro qotillari bilan aloqasi bo‘lgan emas deb hisoblaydi. Bunda u Tabariyga tayangan ko‘rinadi, chunki Navoiy tasvirlagan Iskandarning Doro huzuriga borishi epizodi Tabariy tarixi bilan juda o‘xshash.[39]

Doroning Iskandarga vasiyati borasida ham manbalarda turli qarashlar mavjud. Tabariy bu masalada ikki xil fikr borligini aytdi: 1. Doro Iskandarga ikkita vasiyat qilgan: qizi Ravshanakka uylanish va shoh avlodlariga sitam qilmaslik. 2. Qizi Ravshanakka uylanish va ikki qotildan intiqom olish. Hamidulloh Mustavfiy Iskandar Doroning vasiyatiga ko‘ra Ravshanakka uylanganini ta'kidlaydi, xolos. Mirxondning qayd etishicha, Doro Iskandardan oila a'zolarini hurmat qilish va Ravshanakka uylanishni iltimos qiladi. "Forsnoma" vasiyat borasidagi fikrlarni umumlashtirishi va Navoiyning bu boradagi fikrlariga to‘la muvofiqligi bilan e'tiborga molik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[36] Nizomiy Ganjaviy. Xamsa: Iskandarnoma. – Dushanbe: "Adib" ,2012. – S.75-76.
[37] Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991, 17-18-betlar.

[39] Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Asarlar. Besh jildlik. T.1. – Toshkent : "Fan " , 1968, 73-bet.

1. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Mukammal asarlar to‘plami, XX jildlik, 11-jild. – Toshkent: “Fan”, 1993, B.612.
2. Nizomiy Ganjaviy. Xamsa: Iskandarnoma. – Dushanbe: “Adib” , 2012. – B. 210.
3. Gerodot. История в девяти книгах. – л .:” Наука”, 1972. – С.242.
4. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. B. 136.
5. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Asarlar. Besh jildlik. T.1. – Toshkent : “Fan ” , 1968.